



O'RTA TIBBIYOT XODIMLARINI FAOL O'QITISH USULLARI

Samatova Sanobar Nazarovna

Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlar malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Jizzax filiali o'quv uslubiy bo'lim mudirasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5730289>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: -10 Noyabr 2021

Ma'qullandi: 15- Noyabr 2021

Chop etildi: 20 - Noyabr 2021

KALIT SO'ZLAR

Faol ta'lim, faollik va mustakillik, kommunikativ faollik, dolzarblashtirish, dasturiy o'quv material.

ANNOTATSIYA

O'rta tibbiyot ta'lim muassasalari, ixtisoslashtirilgan va ilmiy-amaliy markazlar, ilmiy-tadqiqot institutlarining kadrlar salohiyatidan va moddiy-texnika bazasidan foydalanishni hisobga olgan holda tibbiyot xodimlari malakasini oshirishni, shuningdek vrachlarning kasb darajasini takomillashtirishni ta'minlash maqsadida faol ta'limni yo'lga qo'yish lozim. Bilim oluvchilarning o'quv faoliyatini faollashtirish, ularda mustaqillik va ijodkorlik qobiliyatlarini tarkib toptirish ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida eng dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika tibbiyot muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2007 yil 2 oktyabrdagi PQ-700-son qarorini bajarish yuzasidan, diagnostika va bemorlarni davolashning yuqori texnologik usullarini o'zlashtirishga, tibbiyot xodimlarining kasb darajasini doimiy oshirib borishga yo'naltirilgan tibbiyot xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi to'g'risidagi o'rta tibbiyot ta'lim muassasalari, ixtisoslashtirilgan va ilmiy-amaliy markazlar, ilmiy-tadqiqot institutlarining kadrlar salohiyatidan va moddiy-texnika bazasidan foydalanishni

hisobga olgan holda tibbiyot xodimlari malakasini oshirishni, shuningdek vrachlarning kasb darajasini takomillashtirishni ta'minlash maqsadida faol ta'limni yo'lga qo'yish lozim.

Faol ta'lim deganda - biz ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy ob'ekti va sub'ekti hisoblangan bilim oluvchi (talaba, shogird, tinglovchi kabi) larning ongli va faol ishtiroki, mustaqilligi va ijodiy qobiliyatlarini ta'minlovchi omillar tizimini tushunamiz.

Har qanday faoliyatda, shuningdek o'quv-bilish faoliyatida ham faollik o'z-o'zidan paydo bo'lmay, balki polyak olimi Okonь ta'kidlaganidek: tahsil oluvchilar faolligining asosini o'quv materialining ayni payt va kelajak uchun muhim va zarurligini anglab yetishlari, uni



mukammal o'zlashtirishga hoxish -istak, qiziqish qo'yilgan o'quv muammosining yechimini topib intellektual qoniqish hosil qilish kabilar tashkil qiladi.

Bilim oluvchilarning o'quv faoliyatini faollashtirish, ularda mustaqillik va ijodkorlik qobiliyatlarini tarkib toptirish ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida eng dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Chunki bilim oluvchilarning faolligi, mustaqilligi, ijodkorligi, ularning faoliyati natijasining sifatini xarakterlaydi. *Pedagogika nazariyasi va amaliyotida* juda ko'plab faollashtirish omillari qayd etilgan.

Ana shunday muhim omillardan biri bizning nazarimizda o'quv materialini dolzarbliigi hisoblanadi. Tinglovchilar tomonidan o'quv materialini nima uchun o'rganish zarur va kelgusi amaliy faoliyatda muhimligini ongli ravishda tushunib yetishlari, materialni har tomonlama mukammal o'zlashtirish uchun xohish-istak, qiziqish, sabr-toqat bilan o'qib o'rganishlari, o'zlashtirgan bilim va tajribalardan amaliyotda ijodiy foydalanishlari, eng muhimi o'z kuchiga ishonch hosil qilish kabilarni ko'zda tutiladi.

Amaliyotda tahsil oluvchilarning faoliyati quyidagi darajalarda bo'lishi isbotlangan:

Faollik va mustakillikning dastlabki darajasida o'qituvchi tahsil oluvchilarga ilgari o'zlashtirilgan tayanch bilim, ish-harakat usullari va shaxsiy fazilatlarini eslatadi. Yangisini batafsil tushuntiradi. Barcha yangi tushunchalarga izoh berib, ob'ektlarni shartli belgilarda ifodalanishi ko'rsatiladi. Bu jarayonda o'zlashtirish darajasi o'zgaruvchan bo'lib, alohida tahsil oluvchilarning o'zlashtirishlarida katta farq ko'zga tashlanib turadi. Tahsil

oluvchilarning o'qib-o'rganishga qiziqishi, istaklari barqaror bo'lmay, balki unga xonalarning jihozlanishi, ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish shakllari, o'quv materialini amaliyot bilan aloqadorligini ta'minlanishi kabilar o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Kommunikativ faollik va mustaqillik darajasida ta'lim-tarbiya jarayonini ishtirokchilari, shuningdek tahsil oluvchilarni o'zlari o'zaro fikr va tajriba almashishlari talab darajasida yo'lga qo'yilgan bo'ladi. Bunda o'zlashtirish darajasi sifat jihatdan mukammal bo'lib, o'quv materialini barcha tahsil oluvchilar deyarli bil xil darajada o'zlashtiradilar, o'quv predmetiga ularning qiziqishi doimiy barqaror ijobiy emotsiyalar bilan mustahkamlanadi. Bunday darajadagi faollikda o'qituvchi mashg'ulot jaraenida tinglovchilardan to'g'ridan-to'g'ri o'tirgan joylarida so'rashi, kartochkalar, tayanch matnlari va boshqa didaktik materiallar bilan ishlashlari bilan boshlashi mumkin.

Tinglovchilar mustaqil holda o'zlashtirilgan tushunchalarga izohlar beradilar, ish-harakat usullarini hamshiralik jarayonini 5 ta bosqichini bajarib ko'rsatadilar, bemordagi simptom va sindromlarni yozib uning mohiyatini tushuntiradilar. O'qituvchi o'tilgan mavzuni tinglovchilar tomonidan talab etilgan darajada o'zlashtirilganligiga ishonch hosil qilgandan so'ng yangi o'quv materialining xarakteriga mos ta'lim usullarini qo'llab uni o'rganishga kirishadilar.

Ijodiy faollik va mustaqillik darajasida o'qituvchi tayanch bilimlarni eslatmaydi, qayta takrorlamaydi, balki aksincha nisbatan murakkab savollar va



masalalarni berib, ularga yangi yechimlarini topishni taklif etadi.

Ushbu bosqichda o'zlashtirish sifat jihatdan doimiy yuqori, bilim oluvchilarning o'zlashtirishdagi farqi minimum darajada bo'lib, o'quv predmetiga qiziqishlari kuchli, o'rganilaëtgan ob'ektlarning o'zaro aloqalari, ta'siri va rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratilgan bo'ladi.

O'quv materialini dolzarblashtirish uchun o'qituvchi:

- tahsil oluvchilarning tayërgarlik darajasini aniqlab oladi;
- yangi materialni didaktik, psixologik, uslubiy va mantiqiy tahlil qilib, unga ishlov beradi, ma'lum qiyinlik darajasidagi o'quv muammolarni topshiriqlar shakliga keltiradi;
- o'quv muammolarni asosiy va ikkinchi darajali bo'laklarga, didaktik birliklarga ajratadi;
- muhim bo'lgan (asosiy) materialni mantiqiy ketma-ketlikka keltiradi;
- o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan murakkab va qiyin topshiriqlarini tinglovchilarga

tushunarli holda yetkazish usul va vositalarini tanlaydi.

Dolzarblashtirish o'ziga xos maqsad, vosita va natija sifatida tadqiq etilib, shu bilan birga undan ta'lim-tarbiya jaraënida me'ër darajasida foydalanish yuqori samara beradi. Dasturiy o'quv materialni dolzarblashtirish uchun ishlab chiqarish mazmunidagi masalalardan foydalanish zarur. Bu holat bilim oluvchiga aniq mo'ljal bo'ladi. U mo'ljalga qanday erishish yo'llarini izlaydi, shu bilan o'zining faolligini ko'rsatadi, natijada materialning har tomonlama puxta o'zlashtirilishiga zamin yaratiladi

Bugungi kunda tinglovchilarning mustaqil ishlashi o'zlashtirishda yuqori samara bermoqda, ya'ni ularda birgalikda muloqotda bo'lish, reja tuzish, qaror qabul qilish, hamda o'z ishini tekshirish kabi qobiliyatlar rivojlanadi. Bundan tashqari talabning o'qishni tugatgandan keyin uning ish faoliyatida kutiladigan natija shuki, ular ish tartibini iqtisodiy mezonlar (tejamkorlik) asosida rejalashtirish va amalga oshirishlari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining 1993y. 28.12 dagi Qonuni. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati.1-tom.Toshkent.2001 y.
2. «Iste'molchilarning xuquqlarini himoya qilish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 1996y.26.04. Qonuni. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati.1-tom.Toshkent.2001 y.
3. O'zR Vazirlar Maxkamasining 1995y.25.05 dagi 181-sonli Qarori –Dori vositalar, tibbiy buyumlar va davolash-profilaktika, oziq-vqatlar sifati ustidan nazoratini tashkil etish to'g'risida». O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati.1-tom.Toshkent.2001 y.